

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI
RIVOJLANТИРИШ (MULTFILMLAR MISOLIDA).**

Niyozova Nasiba Ismoilovna

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxasissligi 1- bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda turli xil multfilmlardan foydalanishning samaradorligini haqida so‘z yuritiladi. Maqolada o‘qish savodxonligini oshirishda multfilm vositalaridan foydalanish usullari yutuqlari o‘rganilgan. Maqolada muammo yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari, qo‘llanilgan metodlar o‘quvchilarining diqqatini jamlash, lug‘at boyligini oshirish va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantrishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Multfilm asosidagi ta’lim, Multimedia vositalari, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, O‘qish savodxonligi, Interaktiv o‘quv dasturlari, Video darslar, Ta’limiy ilovalar, Ijodiy fikrlash.

Абстрактный: В данной статье рассматривается эффективность использования различных мультфильмов в повышении читательской грамотности учащихся начальных классов. В статье изучаются достижения методики использования средств мультипликации в повышении грамотности чтения. В статье освещены результаты исследования проблемы, значение используемых методов в совершенствовании концентрации внимания, словарного запаса учащихся, навыков самоуправления.

Ключевые слова: Обучение с помощью мультфильмов, Мультимедийные инструменты, Учащиеся начальных классов, Грамотность чтения, Интерактивные образовательные программы, Видеоуроки, Образовательные приложения, Креативное мышление.

Abstract: This article discusses the effectiveness of using various cartoons in improving reading literacy of primary school students. The article studies the achievements of methods of using cartoon tools in improving reading literacy. The article highlights the results of research on the problem, the importance of the methods used in improving students' concentration, vocabulary, and self-management skills.

Keywords: Cartoon-based education, Multimedia tools, Primary school students, Reading literacy, Interactive educational programs, Video lessons, Educational applications, Creative thinking.

Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari ichida axborotlashgan jamiyatga o‘tish muhim vazifa, ya’ni jamiyatning barcha sohalarida media vositalarining ta’siri dolzarb muammo hisoblanandi. Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasining qonunchilik yig‘ilishi tavsiyasiga binoan dasturiy vositalarning ishlab chiqarilishi yoshlar hamda kattalarning mediakompetentligirivojlanishiga turtki bo‘ladi, shuningdek,

zamonaviy jamiyatning media madaniyatiga ta'sir etadigan ajralmas omil sifatida qaraladi. Zamonaviy ta'lismu muassasalarida o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishning turli usullar qo'llanilmoqda. Bu usullardan biri — multfilm asosidagi ta'lmdir. Multfilmlar orqali o'quvchilar yangi ma'lumotlarni osongina o'zlashtirishlari, shuningdek, til bilimlarini va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. "So'zlarda sirlar" va "Harflarni biz bilan o'rganamiz" kabi multfilmlar nafaqat o'quvchilarining lug'at boyligini oshiradi, balki ularning diqqatini jamlash va eslab qolish qobiliyatlarini ham yaxshilaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga: o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rnatish; bolaning ona — Vatan, uning tabiatini kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarining bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. Bunda Alpomish yoki Temurning bolaligi multfilmi vidiodarsda bolalarga qo'yiberilishi orqali o'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. Ayni bu mavzularda esa Pomidor do'ppi, Alifboni birga o'rganamiz kabi bir qancha multfilmlar o'qish va nutq o'stirishning ta'limi — tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniqlik kiritilishda yordam beradi. O'qish darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rnatiladi.

O'qish darslarning turlari: a) yaxshi bilim berish darsi; b) mustahkamlash darsi; v) nazorat darsi; g) aralash dars; d) takrorlash-umumlashtirish darsi o'qish. Umumlashtiruvchi darsning o'ziga xos xususiyatlari maqsadiga xos bolgan tarbiyaviy, milliy multfilmlar misol uchun Zumrad va Qimmat, Zuxraxonning aqli, Qalamlarning hayoti, Pashsha bola va yana bir qancha multfilmlarning namoyish etilishi maqsadga muvofiqdir. Umumlashtiruvchi o'qish darsi qurilishi jixatidan boshqa darslardan farqlanadi. Bunday darslar har bir sinfda 4-5 marta o'tkaziladi. Yangi dastur va metodik qo'llanmalarda tavsiya qilinganidek, har bir o'qish darsida o'qilgan asar haqidagi o'quvchilar tasavvuri va bilimini umumlashtiruvchi darsning qurilishi umumlashtirishning maqsadi va xarakteriga qarab belgilanadi. O'tilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o'quvchilar bilimini sistemaga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Shu bois ham bu darslarda multfilmlar katta rol o'ynaydi. Darsda takrorlash ilgari o'qilganlarning mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berishi lozim. SHunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o'qilganlargina emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idrok etilgan

tabiatdagi fan va hodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari ham material bo'ladi. Ayni mavzularda Ona tabiat, Suvning bebaholigi, Sayyoralar va yana bir qancha multfilmlarning vazifasi ham mакtabda olgan bilimlarni hayot, oila va tabiatshunoslikka oid mavzuga bog'ishlashdir. Demakki multfilmlarning vazifasi kitob materialini o'quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan bilimlari bilan bog'lashdir.

O'qish darslarda ish turlari xilma-xil bo'lib, o'qilganlar, ko'rilgan kechirilganlar yuzasidan suhbat, illyustrativ materiallar (rasmlar, misollar)ni ko'rsatish va tahlil qilish, o'quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o'qishi, ekskursiya va kuzatishlar haqida bolalarning og'zaki hikoya qilishi kabilardan fodalaniladi. O'quvchilar muayyan mavzu ustida ishlangan multfilmni tomosha qilganidan keyin, o'qiganlari, ko'rgan, eshitgani, kuzatganlari haqida o'z fikr-mulohazalarini dalil va erkin aytish imkoniyatlari ega bo'lsinlar. Masalan, ma'lum bir mavzuni yakunlab o'tkazilgan darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o'qigan hikoya va maqolalardan tayyorlangan multfilmi tomosha qilgacg, hikoyasi va multfilmini taqqoslab, qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, hikoya yoki multfilmdagidagi qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq-atvorlari haqida o'z fikrlarini aytadilar, zarur bo'lsa, o'qilgan asar mazmunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ekskursiya o'tkazilgan bo'lsa, ular ekskursiyadan ko'rganlardan nimalar qiziqarli bo'lganini, qaysilari kuchli taassurot qoldirganini aytib berishlariga o'qituvchi yordam beradi. Darsni yanada yoritib berishda multfilmdan keyin va oldingi qismlar taqqoslanganda o'quvchilar tafakkurini faollashtirilgani o'stiruvchi ta'limning asosiy shartlaridan biri ekanligi aniqlangan. O'qish kitoblarida berilgan savol va topshiriqlar bolalar qiziqishiga yaqin, ularning yosh xususiyatiga mos, shuning uchun ular yuzasidan bolalar to'g'ri yakun va umumiyl xulosa chiqara oladilar. Mustaqil xulosa chiqarish tarbiyalovchi ta'limda muhim ahamiyatga ega. bo'lishadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarni yanada faol va ijodiy ishlashga undaydi, shu bilan birga, ularga yangi bilimlarni o'zlashtirishda qulaylik yaratadi. Shu sababli, ushbu maqolada biz multfilmlar asosidagi ta'limning turli usullari va multimedia vositalarining ta'limdagi ahamiyatini ko'rib chiqamiz. O'quvchilarning bilim olish jarayonini qanday qilib yanada qiziqarli va samarali qilish mumkinligi haqida tafakkur qilamiz.

Multfilmlar asosidagi ta'lim metodlarining samaradorligi haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Bruner, Piaget, va Vygotsky kabi olimlarning ishlari bu sohadagi asosiy nazariyalar va metodlarni shakllantiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning o'zaro hamkorligini, ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Multimedia vositalaridan foydalanishning ta'limdagi ahamiyati Jonassen va Papert kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ular kompyuter texnologiyalari va multimedia vositalarining o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nigmalarini, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'l keladigan boshqa mahoratlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirish uchun multfilm multimedia vositalaridan foydalanish juda muhimdir. Bu

vositalar o‘quvchilarning qiziqishlarini qo‘llab quvvatlash, darsni sifatli va qiziqarli qilishga yordam beradigan ko‘nikmalar va malakalarga ega bo‘lishiga imkon beradi. Multfilmlar o‘quvchilarda motivatsiya va energiyani oshirishga yordam beradi. Multimedia vositalar o‘quvchilarning ilg‘or va imkoniyatlarini kengaytiradi. Videolar, audio darsliklar, interaktiv taqdimotlar va animatsiyalar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini vizual hamda ilg‘or tashkil etishga yordam beradi. Misol uchun, tarixiy hodisalarni tavsiflash uchun animatsiyalar, tablolar va videolar foydalidir. Bu vositalar o‘quvchilarning asarlar, insonlar haqida tasavvurlash va tahlil qilish orqali o‘rganishni osonlashtiradi. Bu mavzuda Alpomish, Termurning yoshligi va yana bir qancha multfilmlar misol bo‘la oladi. Dars jarayonlaridamultfilm so‘ngida o‘yin va multimedia vositalaridan foydalanish usullari o‘quvchilarning kompetentligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin va multimedia vositalaridan foydalanish sinfda qiziqarli va interaktiv muhit yaratishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarning o‘zlashtirishni oshirishda va tahlil qilishda qiziqishni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ko‘nikmalarni amalda ko‘rish imkoniyati beradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini va ijtimoiy faolligini oshiradi.

Zamonaviy dunyoning har jabhalari riviojlangani sari bolalarning rivojlangani ham sir emas. Bolalar asosan teledasturlar, seriallar va multfilmlardan xulq-atvor namunalari va ijtimoiy normalarni o‘rganishi ajablanarli emas. Shu bilan birga, bolalarga televizor ta’siridan o‘zlarini himoya qilish kattalarga qaraganda ancha qiyin:har qanday yangi ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldirmaydi, unga tanqidiy munosabatda bo‘lishmaydi va shuhbali mazmundagi teledasturlarni tomosha qilishdan bosh tortishmaydi. Ammo, kattalar ota ona yoki o‘qituvchi to‘g‘ri yo‘nalishdagi multfilmlarga yo‘naltirish mumkin bo‘lgan ko‘plab ibratli va hatto tarbiyaviy turdagи animatsiyalar mavjud, ularni tomosha qilishda bolalar nafaqat zavqlanishadi, balki yangi narsalarни o‘rganishadi, qandaydir murakkablikni tushunadilar. Bundan tashqari, multfilm animatsiyadan turli xil fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.

Multfilmlar boy pedagogik imkoniyatlarga ega:- atrofimizdagi dunyo haqidagi g‘oyalarni kengaytirish, yangi so‘zlar, hodisalar, vaziyatlar bilan tanishtirish;bolalar taqlid qilish orqali o‘rganayotganda, ijtimoiylashuvga yordam beradigan xatti-harakatlar namunalarini ko‘rsatish;dunyoga baholovchi munosabatni shakllantirish, tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, estetik did va hazil tuyg‘usini rivojlantirish; multfilmlar hissiy ehtiyojlarni qondirishga yordam beradi. Buni Burukhina A.F., Gavaza E.A., Laletina A.F. maktabgacha ta’lim amaliyotida multfilmning imkoniyatlari haqida tadqiqot olib borishgan. Bir qator psixologik, pedagogik va san’atshunoslik tadqiqotlari, shuningdek, bir qator animatorlarning ishlarini tahlil qilish shuni ta’kidlashga imkon beradiki, multfilm o‘zining xususiyatlariga ko‘ra bolaga ta’sir qilishning eng noyob vositalaridan biridir. Avvalo, multfilmda fantastik va haqiqiyni aralashtirishning maxsus badiiy texnikasidan foydalanishni ta’kidlash kerak. Yetakchi jahon tadqiqotchilari (L.S.Vigotskiy,

A.V.Zaporojets, T.Ribot, J.Selli) bolaning aqliy rivojlanishida tasavvurning alohida rolini ohib berishgan. Tajriba, bilim va g‘oyalarning o‘ziga xos etishmasligi qoplanadi va uning o‘rnini turli xil faoliyat turlariga tasavvurni kiritish bilan almashtiriladi.Bundan tashqari, A.A. Nemirixning ta'kidlashicha, ko‘pchilik o‘qituvchilar multfilmlarni faqat o‘yin-kulgi sifatida ko‘rishadi va bolalarning bo‘sh vaqtlarini to‘ldirishadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu tendentsiyalar o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan multfilmlarning potentsial imkoniyatlarini etarlicha baholamasliklari bilan bog'liq.Ma'lumki, bolaning fikrashi vizual va majoziydir, shuning uchun ba'zi vaziyatlarni tasvirlash uchun animatsion film janri juda mos keladi. Shu nuqtai nazardan, multfilm san'at va media muhitining eng samarali o‘qituvchisi degan xulosaga kelinmoqda. Birinchi sinfda Sholg‘om,Gnomcha, ikkinchi sinfda No‘xot polvon,Kichkina odamlar, Aka-uka grimlar, uchinchi va to‘rtinchi sinflarda Fiksiklar, Ixtiolar, Koinot sargushatlari va bir qancha multfilmlar o‘qish darslarida zamonaviy ta’limda keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini oshirishga multfilmlardan foydalanish metodlari ilmiy ahamiyatga ega. Bu vositalar o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘zgartirishi, darsni qiziqarli va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Multfilmlar, o‘quvchilarga amaliy faoliyatiga asoslangan mashqlar yordamida ma'lumotlarni tez va oson o‘rganish, idrok etish imkonini beradi. Multfilmlar motivatsiya va qiziqishni oshirish uchun ideal vositalardir,o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi sababli o‘qishni ham ko‘proq yoqtirishiga olib keladi. Multimedia vositalar esa o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi. Bu tarzda taqdim etish o‘quvchilarga ma'lumotlarini vizual ravishda ko‘rib chiqishga imkon beradi. O‘yin va multimedia vositalaridan foydalanish metodlari boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar uchun bilim va ko‘nikmalarini hamda o‘qishga motivatsiyani oshiradi. Bundan tashqari, multfilmlar vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga interaktivlik va ishtiroy etish imkonini beradi, ularni bilim olish bilan birga ishlashga shart sharoit yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish kabi kognitiv, komunikativ rivojlanishlariga olib keladi. Jamiyatimizning o‘zgartirilayotgan texnologiyalarga ega bo‘lishi bilan, o‘yin va multimedia vositalaridan foydalanish boshlang‘ich sinflarda o‘qishni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bu yangi uslublar o‘quvchilarning 21-asr ko‘nikmalarini samarali egallashiga va doimiy tarzda zamonaviy shartlar asosida shakllanishiga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bruner, J. S. (1961). The act of discovery. Harvard educational review.
2. Piaget, J., & Cook, M. (1952). The origins of intelligence in children (Vol. 8, No. 5, pp. 18- 1952). New York: International Universities Press.
3. Vygotsky, L. S., & Cole, M. (1978). Mind in society: Development of higher psychological processes. Harvard university press.

4. Papert, S. A. (2020). *Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas.* Basic books.
5. Jonassen, D. H. (2000). *Computers as mindtools for schools: Engaging critical thinking.* (No Title).
6. Maqsudov, U. B. Q., & Rahmonova, R. Z. (2022). TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 1166-1173.
7. Maqsudov, U. B. Q., Eraliyev, Y. L., & Qosimova, G. (2022). TA'LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 973-980.
8. Maqsudov, U., & Eraliyev, Y. (2022). PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68-73.
9. Qurbonovich, M. U. B. (2022). TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.
10. Qurbonovich, M. U. B., & Zuhridinovna, R. R. (2022). OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINISHAKLLANTIRISH OB'EKTI SIFATIDA. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 3-3.
11. Qurbonovich, M. U. B., & Zuhridinovna, R. R. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINISHAKLLANTIRISH OB'EKTI SIFATIDA СМИ КАК ОБЪЕКТ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ. FarDU. ILMIY XABARLAR,
12. Maksudov, U. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 688-693.